

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI**  
**TARBIYALANUVCHILARINING MILLIY MUSIQIY TAFAKKURINI**  
**SHAKLLANTIRISHDA MAQOM ASARLARINING TUTGAN O'RNI**

Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich  
Nizomiy nomidagi TDPU "Musiqqa  
madaniyati" fakul'teti dotsenti, PhD.  
[yumid090@mail.com](mailto:yumid090@mail.com)

**Annotatsiya:**

Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqqa mashg'ulotida musiqqa rahbarining maqom asarlarini o'rgatishga bolgan madaniy-estetik munosabati hamda tarbiyalanuvchilarining milliy musiqiy tafakkurini shakllantirishda maqom asarlarining tutgan o'rni, shuningdek, bolalarning maqom asarlarini o'rganish jarayoniga tayyorgarlik holati va ularning musiqiy bilimlari faoliyatida qobiliyatlarini faollashtirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, ilk bolalik davri, rivojlanish, o'quv faoliyati, maqom, milliylik tamoyillari, estetik sifat, ma'naviy tarbiya, musiqiy tafakkur, tafakkur, usul va vositalar.

Milliy maqom asarlarining ommalashishi va maqom asarlarining maktabchaga yoshdagi bolalarning o'rganishlarining muhim jihati – yosh avlodda milliy musiqiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqomlar, mamlakatning tarixida, musiqiy sahnasi unsurlaridan biri bo'lganligi sababli, ta'limning har bir boshqichida milliy musiqiy tafakkurni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Maqomlar musiqqa stili va milliy maqom usullari jamlanmasi sifatida shu mamlakatning musiqiy identifikatsiyasini tashkil etadi va o'zining unikal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu esa maqomlar badiiy ijrolarini o'rgatish va tushuntirishda, asarlar va ularning asosiy xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi. Bu, ularning melodiya strukturasi, ritmik va tematik elementlar va boshqa xususiyatlari to'g'risida tushuntirishni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek musiqqa mashg'ulotini olib boruvchi murabbiylarning ham mumtoz asarlarni ijro qilish va tahlil qilishlari bo'yicha bilimlarini takomillashtirish bo'yicha oliy musiqiy pedagogik ta'lim tizida bir qancha ta'limiy rivojlantirish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilib kelinmoqda.



Maqom asarlari yordamida bolalarning aqliy qobiliyatlari, iqtidorini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish kabi dolzarb vazifalar davlat dasturlarida ham belgilab berilgan. Maqom asarlarini maktabgacha ta'limda o'rgatish metodikasi va mazmuni, o'qitish shakllari, metod, uslub, vositalari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Maqom asarlarini o'rganish masalasida avvalambor, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mudiralari, metodistlar hamda musiqa rahbarlari bog'cha tarbiyalanuvchilarida ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish, musiqiy - ijodiy bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishda, musiqiy - pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda milliy musiqiy ijro mahoratlarini oshirishga xizmat qiladigan texnik ba'za (milliy va elektron musiqa cholg'u sozlari) yaratishlari zarur. Shundagina mashg'ulotlarda milliylik tamoyillari va metodlari tasnifi hamda ularning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarini tashkil etish mazmuni, metodikasi, metodik va didaktik masalalar o'z yechimini topishi mumkin.

Shuni aytish lozimki, maqomlarning o'zi ham pedagogik – psixologik jihatdan kuchli tarbiya quvvatiga ega. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida maqomlar ijrosi orqali ijodiy-musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishda paydo bo'ladigan ayrim badiiy va ilmiy-pedagogik vazifalarni to'g'ri hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

- maqom ijrochiligi faoliyatining balalar ruhiyatiga ta'sirini o'rganish;
- maqom ijrosidagi mashg'ulotini sifatli tashkil qilish maqsadida maxsus psixologik ko'rsatmalar berish;
- maqom ijrosi orqali bolalarda ijodiy tafakkurning rivojlantirilishini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida psixologik muhit va shart-sharoitlarni vujudga keltirish;
- maqom ijrochiligi vositasida ma'naviy-madaniy masalalarga e'tibor berish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ijrosida maqomlar ijrochiligi, o'qituvchi yordamida maqom asarlarining tahlili kabilar bir nechta yoqimli va samarali maqsadlarga erishishga yordam beradi:

1. Estetik sifatini tahlil qilish: Maqomlar o'ziga xos go'zal va betakror musiqa uslubini, melodiyaning tuzilishini va ritmlarni o'z ichiga oladi. Musiqa ijrochiligi jihatidan yuksak estetik va zavqli bo'lishini tushunishga yordam beradi.
2. Tarixiy jihatini o'rganish: Maqom asarlarining tarixiy ahamiyati ustida suhbatlashish, madaniy, va milliy mohiyatini tushunishga yordam beradi. Bu, o'z-



o'zidan millat kelajagi bo'lmish bolajonlarning musiqiy tafakkuri rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

3. Maqomlarning ertak sifatida muhokama qilinishi: O'zbek maqomlarining musiqa ustida o'qilishi, ularning milliy maqom matni, ijtimoiy va ma'naviy mavzularini o'rganishga yordam beradi. Bu, o'zbek musiqasining ijtimoiy-diniy, ijtimoiy-adabiy, ijtimoiy-san'at va boshqa sohalardagi turli xil qismlari bilan birga o'rganilishiga imkoniyat yaratadi.

4. Ma'naviy tarbiyaga yordam berishi: Maqom asarlarining ma'naviy-ilmiy izohlarini o'rganish, o'zgarishlar va rivojlanishga qaratilgan qo'shimcha ma'lumotlarga odatiy ravishda mulohaza qilishga yordam beradi.

Maqomlar o'zining ohangdorlik hususiyatlari orqali milliy-madaniy merosni ifodalaydi va bu jihat bolalarda madaniy boylikni tushunishga yordam beradi. Tarbiyalanuvchilarga yuksak maqom asarlarining musiqiy tuzilishini kuy va ritm elementlari haqida ma'lumot berib boorish bilan birgalikda geografik, tarixiy va ijtimoiy sharoitda tadqiq etish madaniyatning o'ziga xosligi va rivojlanishini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Nihoyat, maktabgacha ta'lim tashkilotlari musiqa rahbarlarining bolalarga maqom asarlarini tinglatishi, maqom musiqasidagi farqlarni turli an'anaviy va zamonaviy metodlar yordamida bolalar musiqa ijodkorligi jarayonida ajrata bilishlarini tekshirish kabi muhim jihatlar bolalarning hissiy va ma'naviy-estetik dunyosini anglashda muhim vosita bo'la oladi. Maqomlarni o'rganish bolalarning madaniyatga bo'lgan hissiyot olami va e'tiqodini tushunish uchun oyna ochishi mumkin. Shu sabablarga ko'ra, maqom asarlarini o'rganish estetik qadriyatlarni anglashga, madaniy merosni asrab-avaylashga, ota-onaga va Vatanga bo'lgan muhabbatni uyg'otishga, jamiyatlarning hissiy va ma'naviy olamini anglashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarning milliy musiqiy tafakkurini shakllantirishda maqom asarlarining ahamiyati benihoyat katta. Maqomlar, bir necha musiqa madaniyatlari, shuningdek milliy musiqalarning yozma va ustoz-murabbiy adabiyotlarida o'ziga xos o'zaro mos ravishda bayon qilingan muhim musiqiy strukturlardir. Maqom asarlari tarbiyalanuvchilarga ularning milliy musiqiy tasavvurlarining shakllantirishda katta roli bor. Maktabgacha ta'lim muassasalarida, tarbiyalanuvchilarga milliy musiqalar orqali o'z mamlakatlarining tarixi va madaniyatini o'rganish uchun maqomlarga katta e'tibor berilishi kerak. Maqom



asarlarining tutgan o'rni, tarbiyalanuvchilarga milliy musiqaning o'ziga xos madaniy va ma'naviy xususiyatlarini o'rganishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov Ishaq. Maqomlar. Toshkent., (qo'lyozma) San'atshunoslik institute kutubxonasi, Inv. N843, b. 61
2. Yunusov R. Yu. O'zbek xalq musiqa ijodi (ilmiy-uslubiy tavsiyalar) II qism, T., 2000, b. 24
3. Yuldoshev, U. Y. (2021). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO THE PROFESSIONAL PREPARATION OF THE FUTURE MUSIC TEACHER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 56-61.
4. Yuldoshev, U. (2023). EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH CULTURAL AND ARTISTIC EVENTS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 342-345.
5. Юлдошев, У. Ю. (2019). Музыка уčitувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. Современное образование (Узбекистан), (9 (82)), 47-53.
6. Юлдошев, У. Ю. (2017). Эксклюзивные свойства педагогической технологии в преподавании музыки. Молодой ученый, (22), 207-209.
7. Юлдошев, У. Ю. (2020). РОЛЬ АРТИКУЛЯЦИИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ МАКОМА. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ (pp. 87-89).
8. Yuldoshev, U. (2018). Problems of Choosing Methods and Technologies in Musical Pedagogics. Eastern European Scientific Journal, (2).
9. Юлдошев, У. Ю. (2024). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИ МАСАЛАСИ. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 30(2), 133-139.
10. Sheraliyevna, S. D., & Yuldoshevich, Y. U. (2024). LEVEL OF VOCAL SINGING PERFORMANCE OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS WITH DISABILITIES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(3), 141-146.
11. Yuldoshevich, Y. U. (2024). ТА'ЛИМ СИФАТИНИ ТА'МИНЛАШДА ОЧИҚ ДАРSLARNING O'RNI. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 5(1), 223-226.
12. [www.compozitor.spb.ru](http://www.compozitor.spb.ru)
13. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

